

**OILADA SOG‘LOM IJTIMOIY PSIXOLOGIK IQLIMNI YARATISHDA BOLAGA
TA’SIR ETUVCHI ENG MUHIM OMILLARNING O‘ZIGA XOSLIGI**

Raxmanova M. Q.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Nishonov D. R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

Mardonov J. Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

Begmatov N. J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

Annotasiya. Maqolada insonning qanday tarbiya ko‘rganligi uning oilaviy sharoiti, ota-onasiga bog‘liqligi, oilada bolalarni sog‘lom, aqli, axloqli, pok, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ota-onalarning muqaddas burchi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: aqli, axloqli, pok, mehnatsevar, nasihat, tanbeh, jazolash do‘stlik, hamjihatlik, hurmat, inson tashabbusi

Аннотация: В статье говорится о том, как воспитывается человек, его семейные условия, его зависимость от родителей, а также священный долг родителей вырастить в семье здоровых, умных, нравственных, чистых и трудолюбивых детей.

Ключевые слова: умный, нравственный, чистый, трудолюбивый, увещевание, упрек, наказание, дружба, солидарность, уважение, человеческая инициатива.

Abstract. The article talks about how a person is raised, his family conditions, his dependence on his parents, as well as the sacred duty of parents to raise healthy, smart, moral, clean and hardworking children in the family.

Key words: smart, moral, clean, hardworking, exhortation, reproach, punishment, friendship, solidarity, respect, human initiative.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u insonlarga xos «tabiiy-biologik» (jinsiy munosabatlar, bola, tug‘ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo‘li bilan qayd etish), ma’naviy (er-xotin, ota-onsa va bolalar o‘rtasidagi mehr-oqibat tuyg‘usi va boshqalar) munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, bilogik, ijtimoiy, ahloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi.

Oila bir gulshanki, unda muhabbat chechagi qiyg‘os ochilur.

Oila bir bog‘dirki, unda orzu-umid daraxtlari meva tugadi.

Oila bir qasrki, baxt naqshlari rango rangdir.

Oila bir ummonki, his-tuyg‘ular to‘lqinlari ko‘zni quvontiradi.

Oila – azaldan muayyan iliq hissiyotlar, o‘zaro mehr va muhabbat asosida quriladigan maskan sanaladi. Ikki inson o‘zaro ahdu-paymon qilib ro‘zg‘or qilishga qaror qilar ekanlar, ularda yuksak axloqiy hislar iffat, hayo, sabr, iroda, shukur, aql va farosat, sahovat va mehr bo‘lishi lozim.

Odam faqat o‘z oilasidagina va faqat o‘z yaqinlari qurshovidagina o‘zini tom ma’noda xotirjam, erkin va baxtli his qila olishi mumkin. Shu bilan birga insonning sarf bo‘lgan kuchlari oila sharoitida jadal tiklanadi. Ko‘p hollarda ayollar bola-chaqa, uyo-ro‘zg‘or, oila uchun jon kuydirib, o‘zidan kechishadi. Lekin aynan shunday ayollar astasekin o‘z ayollik mohiyatlaridan uzoqlashib, ayol ekanliklarini unuta boshlaydilar. Ular uchun bunday hayot tarzi go‘yo qoniqarlidek, shu bilan o‘zlarini baxtli deb his qilsalar ham, lekin ongsiz ravishda bu holat ularda qondirilmagan mayllar tufayli paydo bo‘ladigan psixik holat - frustratsiyani paydo qiladi, nimadandir ko‘ngli to‘lmaslik, asabiylilik, xafaqonlik kabi psixik o‘ng‘aysizlikka sabab bo‘ladigan sharoit yaratadi. Fransuz mutafakkiri Jan-Jak Russo «Agar ayol erkaklikni davo qilmay, oxirigacha ayolligini qilsa, u ko‘proq izzat-hurmatga sazovor bo‘ladi. Ayolda ayolga xos fazilatlarni cheklab, erkaklik hislatlarini kuchaytirish unga zyon yetkazish demakdir», degan edi. Yaxshi ona bo‘lish uchun eng avvalo “ayol bo‘lish” va “baxtli odam” bo‘lish kerak. O‘zini, hayotini, butun tabiiy ehtiyojlarini bolalarga, oilaga qurban qilish yaxshi ona bo‘lish degani emas. Bunday ona avvalo o‘zini aldaydi, qolaversa o‘zi xohlamagan holda, ongsiz ravishda bolalar shaxsi taraqqiyotini ham barbod qiladi. Ona eng avvalo o‘zini sevishi, tabiiy impulsları va ijtimoiy talablarga mos ravishda shaxsiy hayot tarzini anglashi kerak. Boshqacha aytganda ayol eng avvalo o‘zini ayol sifatida, undan keyin turmush o‘rtog‘i sifatida, keyin ona sifatida, shundan so‘nggina ijtimoiy faoliyat ishtirokchisi sifatida his qilishi, tasavvur qila olishi kerak. Kimki to‘laqonli ayol sifatida shakllana olmapti, u turmush o‘rtog‘i, ona va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllana olmaydi. O‘z shaxsiy vujudiy egoizmini qondira olgan, hayotdan quvonishni bilgan, qoniqish hissi bilan yashayotgan ayolgina o‘z atrofidagilarga quvonch ularsha oladi.

Onaning eng buyuk xizmati shundaki, u avvalo farzandda chinakam fazilat, mehrni shakllantiradi. Mehr tuyg‘usi go‘dak beshikdaligidayoq quloqlari ostida yangragan ona allasining orombaxsh sadolari orqali bola qalbiga yo‘l topadi. Chunki, ona bolalar bilan ruhiy va biologik jihatdan eng ko‘p bog‘langan shaxsdir. O‘z farzandidan mehr kutayotgan onalarimiz avvalo, farzandlari qalbini alla mehri bilan to‘ldirishlari lozim. Onalarimiz yana shu narsaga e’tibor qaratishlari lozim-ki, agar

farzandlarimiz yaxshi inson bo‘lishlarini xohlasak, bir kunda bo‘limganda 10-15 marta bolalarimizni bag‘rimizga bosishimiz va ularning kelajaklari uchun yaxshi tilaklarimizni boshlarini silagan holda takrorlashimiz shart. Ba’zi oilalarda oilani boshqarish, unga boshchilik qilish oila a’zolarining qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalgalashishga oshirilsa, ba’zi oilalarda er-xotinning alohida-alohida liderlikka intilishi natijasida oilaviy nizolarning ortib borishi, bolalarning har tomonlama e’tibordan chetda qolishi, natijada jinoyatchilik ko‘chasiga kirib ketishi kuzatiladi. Ba’zi oilalarda ayol liderligining mavjudligi o‘g‘il bola shaxsida ayollarga xos xususiyatlarning kuchayib borishiga olib kelishi mumkin. O‘g‘il bolalarda feminin sifatlarning ko‘proq namoyon bo‘lishining sabablaridan biri ham oilada ota rolining, mavqeyining pastligi bo‘lsa, qiz bolalarda maskulin sifatlarining ortishiga ayolning oilada ro‘zg‘or boshqaruvi, oilani moddiy jihatdan ta’minalash bilan bog‘liq vazifalarni bajarish uchun mas’ulligining ortganidir.

Insonning qanday tarbiya ko‘rganligi uning oilaviy sharoiti, ota-onasiga bog‘liqdir. Farzand tarbiyasida ota, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi. Oila boshlig‘ining ya’ni otaning hurmati joyida bo‘lib, o‘z oila a’zolariga munosib rahbarlik qila olsagina, oilada tartib-intizom, mehnat va dam, o‘zaro hurmat va odob-ahloq joyida bo‘ladi. Otalarimiz farzandlari 14 yoshga to‘lgunga qadar ideal otaga aylanib olishlari shart. Shundagina farzandi referent guruh vakilini oiladan tashqaridan axtarmaydi. Aks holda farzandlarimiz tarbiyasi izdan chiqib, jamiyatdagi axloq me’yorlariga qarama-qarshi bo‘lgan deviant xulq-atvor vujudga keladi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlar kundalik hayotida radio, televidenie, video, kompyuter xizmatlarining ortib borishi natijasida oilalarda yana bir muammo paydo bo‘ldi. Bu ba’zi oilalarda otanalar va farzandlar o‘rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e’tiborning pasayishi, oila a’zolarining o‘rtasida fikr erkinligining cheklanganligi holatlari bilan belgilanadi. Oiladagi o‘zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a’zolarining ayrimlarida stress (asabiy tanglik), suitsid (o‘z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarni kelib chiqishi kuzatilmogda. Bunday holatlarning oldini olish uchun avvalo oila a’zolari o‘rtasida oshkora, yaqin, o‘zaro tushunarli, ishonchli muloqotni amalgalashish zarur. Ota onalarda faqat o‘z bolalarini “Boqyapmiz, kiyintiryapmiz, eng zo‘r repetitorlarga beryapmiz-ku?! Yana nima qilaylik?” deganlarini va bu bilan o‘z farzandlarimizni tarbiyasini boshqalar zimmasiga yuklayotganimiz ma’lum.

Tarbiya masalasida ota onaning o‘rninini hech kim bosa olmaydi! Ilk davrida oilada oiganini inson butun umr o‘zida saqlaydi. Umr davomida olishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning 70 foizini bola 5 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘zlashtiradi. Maktabga qadam qo‘yishidan oldin inson shaxs sifatida deyarli shakllanib bo‘lgan bo‘ladi.

Bolani hech kim oila a’zolari kabi yaxshi ko‘rmaydi Hech kim bola tarbiyasiga oilachalik yomon ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ma’lum o‘rganishlarga ko‘ra hududlarda istiqomat qiluvchi ziyorilar farzandlari bilan kuniga 10-15 daqiqa muloqot qiladi xolos

ekan. Bu hol ota-onalarning o‘z farzandlariga yetarli e’tibor bermayotganligi, uning qiziqishlarini aniq bilmasligi, tengdosh va tengqurlari haqida ma’lumotga ega emasligi, ya’ni bola o‘z holiga tashlab qo‘yilganligidan dalolatdir. Tabiiyki, bunday e’tiborsizlik ularning nojo‘ya yo‘llarga kirishi, jinoyatkorona guruhlar va aqidaparastlar ta’siriga tushib qolishiga sabab bo‘ladi. Televizor yoki kompyuter oldida ko‘p vaqtini o’tkazadigan bolalar kattalar olamiga muddatdan oldin kirib borishi kuzatiladi, shuningdek, bu xol tez toliqish, parishonxotirlilikni yuzaga keltiradi. Bunday holatda ota-onalarning bola tarbiyasidagi mas’uliyatini instinct darajasiga ko‘tarish, oila a’zolariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi an’analarni yaratish kerak bo‘ladi.

Tarbiya bu faqat ***nasihat, tanbeh, jazolash*** emas. Bolani ko‘proq atroffagilarning birinchi o‘rinda ota-onanining hatti-harakatlari tarbiyalab qo‘yadi. Oiladagi psixologik iqlimni yaratish bolaga ta’sir etuvchi eng muhim omil hisoblanadi.

- Do‘stlik, hamjihatlik,
- hurmat, inson tashabbusini qo‘llab-quvvatlash,
- iliqlik, o‘y-hayollari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashish, quvonch va qayg‘ularni baham ko‘rish,
- o‘z fikrini yashirmsandan gapirish, bir-birini tinglash,
- xushchaqchaqlik, birdamlik, dilkashlik.

XV asrning ikkinchi yarmidagi ma’rifatparvarlik harakatiga boshchilik qilgan buyuk shaxslardan biri Alisher Navoiydir. Uning adabiy merosi va ta’lim-tarbiya borasidagi xizmati shu qadar ulug‘ va muhim bo‘lganki, ular insoniyat ufqini yorib chiqib, umumbashariy mazmun kasb etgan.

A. Navoiy hayotiga nazar tashlagan kishi umr bo‘yi topgan-tutganlarini och-yalang‘ochlarga, yetim-yesirlarga, muhtoj shoир, olimlarga ularшиб bergani va ularga ota mehri bilan munosabatda bo‘lganligining guvohi bo‘ladi. Uning fikricha, insonning insoniyligi aql vaadolat bilan, halollik va poklik bilan faoliyatda bo‘lishidir. Shu sababli bolani yoshligidan kamol toptirishda ota-onalarning roliga alohida e’tibor beradi. Ularning o‘z farzandlari ta’lim va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga alohida e’tibor berishi lozimligi ta’kidlanadi.

Yoshlarni ota bilan birga onani juda hurmat qilishga, otalarni qadrlashga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, alloma nafaqat tabib, faylasuf, olim, balki buyuk murabbiy ham edi. Uning asarlarida tarbiya, ayniqsa, oilada bolalarni sog‘lom, aqlli, axloqli, pok, mehnatsevar qilib tarbiyalashda ota-onalarning muqaddas burchi sanab ko‘rsatilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: 1992.
2. 1998 yil-Oila yili deb e’lon qilinishiga doir hujjatlar.
3. A.Q.Munavvarov. Oila pedagogikasi.-T.: O‘qituvchi. 1994.

4. E.G'oziev. Pedagogik psixologiya asoslari.-T.: Universitet. 1997.-80 bet.
5. Kaykovus. «Qobusnoma».-T.: O'qituvchi.1990.
6. A.Qayumov. abu Rayhon Beruniy. Abu Ali Ibn Sino.-T.: 1987.-240 bet.
7. Z.K.Ismailova, A.A.Shayusupova. Pedagogikadan ma'ruzalar manti.-T.TIMI.2005.
8. N.R.G'aybullaev va boshq. Pedagogika.-T.: TDMU.2005.
9. Raxmanova M. Q. Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligni rivojlantirish // Mug'allim həm yziksiz bilimlendirir 2023 y. №6/3 246-252
10. Raxmanova M. Q Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi // Uzlursiz ta'lim 2023 y. Maxsus soni 41-46.